



## „RAQAMLASHTIRISH SHAROITIDA BO‘LAJAK TARBIYACHI PEDAGOGLARNING KASBIY MALAKALARINI TA‘LIMDA BAHOLASH“

D.O‘Jo‘rayeva

*BuxDPI maktabgacha ta‘lim kafedrasi o‘qituvchisi*

Shaxs kelajagini belgilash va muhim poydevor yaratishga yo‘naltirilgan faoliyatni tashkil etishda uzluksiz ta‘lim tizimidagi pedagogik jarayonlarning alohida o‘rni bor, ya‘ni maktabgacha ta‘lim, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari, akademik litseylar, kasb-hunar kollejlari va oliy o‘quv yurtlarida ta‘lim oluvchilarda har tomonlama barkamollik sifatleri tarbiyalanadi. Zero, “Ta‘lim – imkoniyatlar tengligini ta‘minlaydigan buyuk mezon. U jamiyat aql-zakovatining yuksalishi, raqobatbardoshlikning kuchayishi va yutuqlar ko‘payishining muhim omili vazifasini o‘taydi”.

O‘zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning “Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch asarida “Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi – bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasi”<sup>3</sup>, deb aytgan fikrlari ta‘lim va tarbiya tushunchalarining o‘zaro bog‘liqligi va aloqadorligi, ya‘ni ular yaxlit pedagogik jarayon sifatida mavjudligini ifodalaydi.

O‘quv-tarbiya jarayoni tushunchasi ko‘pchilik tadqiqotchilar tomonidan turlicha talqin qilinsada, mazkur jarayon ta‘lim-tarbiya jarayoni sifatida shaxsning kamol topishida muhim ahamiyat kasb etadi, chunki u bir avlodning ijtimoiy tajribasini keyingi avlodlar tomonidan o‘rganilishi va o‘zlashtirilishi hamda ularning o‘rganganlarini amaliyotga tatbiq etish uchun zarur shart-sharoitlar yaratib beradi.

O‘quv-tarbiya jarayoni – bu shaxslararo munosabatlarda, bevosita va bilvosita ta‘sir ko‘rsatish jarayonida (tarbiyaviy munosabatlar) insonlarning shaxsiy sifatlarining shakllanishi va rivojlanishiga, xatti-harakati va dunyoqarashini o‘zgarishiga, tajribasining boyishi, bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishiga xizmat qiladigan omillar mavjmuini tashkil qiluvchi ta‘limiy muhit deb aytishimiz mumkin.

O‘quv-tarbiya jarayoni ishtirokchilari tomonidan ko‘zlangan maqsadlar yo‘nalishida erishilgan natijalar mazkur jarayonning samaradorligini ifodalaydi va u pedagogik jarayon subyektlari (mazkur jarayon ishtirokchilari) dunyoqarashining o‘zgarishi, tafakkurining rivojlanishi, bilim, ko‘nikma va malakalarining shakllanishi va rivojlanishida o‘z ifodasini topadi. Pedagogik jarayon samaradorligi ko‘p jihatdan uning quyidagi o‘ziga xos jihatlarini inobatga olish zaruriyatini belgilaydi:

- o‘quv-tarbiya jarayoni samaradorligi o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan ta‘lim-tarbiyaviy jarayonlarning natijaviyligini ifodalashi;
- o‘quv-tarbiya jarayonining o‘zaro bog‘liq va aloqador bo‘lgan barcha tashkil etuvchi qismlari bir butun, yaxlit dinamik tashkiliy tuzilishga ega ekanligi;
- o‘quv-tarbiya jarayoni dinamikasi protsessual xususiyatlarga ega ekanligi;

<sup>3</sup> Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2008. – B.62.



- o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etishda ikki tomonlama harakat, ya'ni to'g'ri va teskari jarayon mavjudligi;

- o'quv-tarbiya jarayoni komponentlarining o'zgarishi pedagogik tizim samaradorligiga ta'sir ko'rsatishi.

Ta'lim muassasalarida o'quv-tarbiya jarayonlari ikki kichik tizim doirasida, ya'ni darsda va darsdan tashqari faoliyat jarayonlarida amalga oshiriladi. Bu jarayonlarni hamda o'zaro bog'liq bo'lgan tashkil etuvchi qismlarning ichki tabiatiga xos bo'lgan jarayonlarni o'z ichiga olgan hamkorlikdagi faoliyatlar, shuningdek, ichki sharoit va imkoniyatlar pedagogik tizimni tashkil etadi, bunda tizimning subyektini hisoblangan pedagoglar, o'quvchi-talabalar, ota-onalar va rahbarlarning faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda o'quv-tarbiya jarayoni subyektlari uchun qo'yilayotgan talablar ta'lim standartlari va o'quv dasturlarini unifikatsiya va modernizatsiya qilish; pedagogik jarayonni va subyektlar faoliyatini rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirishda pedagogik tizim komponentlarining o'zaro aloqadorligi va bog'liqligi, integrativ tabiati kabi qator o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish; mazkur tizimda innovatsion va hamkorlikdagi faoliyatni rejalashtirish, tashkil etish va takomillashtirish uchun shart-sharoitlar yaratish, ya'ni mazkur jarayonning samaradorligini ta'minlash yo'nalishida maxsus kurslar, o'quv-seminarlari tashkil etish va o'quv-metodik mahsulotlar bilan ta'minlash; ta'lim muassasasi, oila, mahalla, jamoaviy boshqaruv organlari va jamoatchilik tashkilotlari faoliyatini rivojlantirish, ya'ni hamkorlikdagi boshqaruvni tashkil etish va takomillashtirish kabi qator yo'nalishlar bo'yicha mavjud muammolarni bartaraf etishni nazarda tutadi.

Shuningdek, o'quv-tarbiya jarayonlarining integrativ tabiatiga mos rivojlantiruvchi strategiyalarni ishlab chiqish va amalga oshirish mexanizmlarini loyihalashtirish o'quv-tarbiya jarayonlarida o'rganiladigan tushunchalarning o'zaro bog'liqligi va aloqadorligini hamda axborotlarning yangiligi va ishonchligini ta'minlash zaruriyatini belgilaydi.

O'quv-tarbiya jarayonlarini samarali tashkil etish va boshqarishda uning quyidagi o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olish zarur:

- o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish jarayoni o'ziga xos integrativ tizim ekanligi;

- o'quv-tarbiya jarayonlari komponentlarining o'zaro bog'liqligi va aloqadorligi;

- o'quv-tarbiya jarayonlari samaradorligi mazkur jarayon subyektlarining bilim, ko'nikma va malakalari va o'zlashtirish ko'rsatkichlari darajasining o'sishi, ya'ni ta'lim-tarbiya jarayonining natijaviyligini ifodalashi;

- o'quv-tarbiya jarayonlarida amaliyotga tatbiq etilayotgan, ya'ni samaradorligi tekshirilayotgan yangilik va innovatsiyalar o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligi;

- o'quv-tarbiya jarayonlarining samaradorligi subyektlarning ehtiyojlari va manfaatlariga hamda shaxsiy qiziqishlariga bog'liqligi;

- o'quv-tarbiya jarayonlarida ijodiy muhitni yaratish motivlashtirish zaruriyatini belgilashi;



- kommunikatsion jarayonlarda o'quv-tarbiya jarayonlari subyektlarining faolligi hamda axborotlarning yangi va ishonchli bo'lishi zaruriyati;
- o'quv-tarbiya jarayonlarida har bir subyekt o'z ijodiy imkoniyatlaridan foydalana olishi uchun shart-sharoitlar yaratishning majburiyiligi;
- o'quv-tarbiya jarayonlarini tashkil etish va boshqarish mazmun-mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga erishishga yo'naltirilgan, o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan boshqaruv funksiyalari va metodlaridan foydalanishni nazarda tutishi.

Shunday ekan, ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan o'quv-tarbiya jarayonlari samaradorligi tatbiq etilayotgan yangiliklar asosida jarayon qatnashchilarining olgan bilimlari, zamonaviy texnika va axborot texnologiyalarini o'rganishi, intellektual qobiliyatlarining shakllanish darajasini hamda tarbiyachi-pedagoglarning bilimi, ko'nikma va malakalari, shuningdek, pedagogik mahorati va kasbiy qobiliyatlarining rivojlanish darajalarining o'sishini belgilaydi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022— 2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi (Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 29.01.2022-y., 06/22/60/0082-son, 18.03.2022-y., 06/22/89/0227-son, 21.04.2022-y., 06/22/113/0330-son)

2. I.V. Grosheva, L.G.Yevstafeva, D.T.Maxmudova, Sh.B.Nabixanova, S.V. Pak, G.E.Djanpeisova "Ilk qadam" davlat o'quv dasturi T: 2022. 1-81-b;

3. Dilnoza Jo'rayeva O'ktam qizi „Bo'lajak tarbiyachi, pedagoglarning kasbiy malakalarini baholash mexanizmi“ YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 17-noyabr 2023-yil

4. Dilnoza Jo'rayeva O'ktam qizi „MAKTABGACHA TA'LIMDA BOLALAR NUTQINI O'STIRISH SHART SHAROITLARI“ ОБРАЗОВАНИЕ НАУКА И ИННОВАЦИОННЫЕ ИДЕИ В МИРЕ <http://www.newjournal.org/> Выпуск журнала №-30 Часть-3\_ Октябрь – 2023 97 2181-3187

5. Dilnoza Jo'rayeva O'ktam qizi „Maktabgacha ta'lim tashkilotida bolalarni maktab ta'limiga tayyorlashda rivojlantiruvchi muhitning ahamiyati“. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI 17-noyabr 2023-yil

6. Dilnoza Jo'rayeva O'ktam qizi „Bolalarda uchraydigan nutq kamchiliklari va ularni bartaraf etishning ijtimoiy-pedagogik asoslari“. YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOT STRATEGIYASI: MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINING INNOVATSION RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI. RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMANI. 17-noyabr 2023-yil



7. Dilnoza Jo'rayeva O'ktam qizi „MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI TARBIYALANUVCHILARIDA XALQARO TAJRIBALAR ASOSIDA NUTQIY BILIM VA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH“.496-500b

8. Jo'rayeva Dilnoza O'ktam qizi „ Mechanism of International Assessment of Professional Qualifications of Future Teachers and Pedagogues in the Conditions of Digitization“. International Journal of Discoveries and Innovations in Applied Sciences | e-ISSN: 2792-3983 | www.openaccessjournals.eu | Volume: 3 Issue:12. 5-9p